KUCHLI MA’NAVIYATLI YOSHLAR TARBIYASI: INNOVATSION DISKURS

Muhammadjon Quronov – RMMM huzuridagi IMTI direktori o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor, kuranov5@gmail.com
Sherzod Jumanov – O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori. jumanovsherzod452@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan davlat siyosati, kuchli ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda innovatsion yondashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish mexanizmi, uning maqsad va vazifalari, tarkibiy qismlari, samarali shakl, vosita va metodlari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi*, *«kuchli ma’naviyat»,* «yuksak ma’naviyat», «*yoshlar ma’naviyati», «ommaviy madaniyat», ijtimoiy pedagogik tizim, innovatsion g‘oyalar.*

Abstract: In this thesis, the state policy carried out in the spiritual-educational sphere, innovative approaches to educating young people with strong spirituality, the mechanism of organizing spiritual-educational work, its goals and tasks, components, effective forms, tools and methods took place.

Key words: system of spiritual and educational work, "strong spirituality", "high spirituality", "youth spirituality", "mass culture", social pedagogical system, innovative ideas.

O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi – milliy davlatchiligi-mizning strategik maqsadlariga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda «Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, **ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat**», - dedi Prezident.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ma’naviyat haqida fikr yuritar ekanlar birinchi bo‘lib **«kuchli ma’naviyat»** degan iborani qo‘lladilar. «Kuchli ma’naviyat» tushunchasi «yuksak ma’naviyat» yoki «yoshlar ma’naviyati» tushunchalaridan mohiyat jihatidan tubdin farq qilib, bu tushunchaga dinamik, ya’ni o‘zgaruvchanlik ruhini beradi. Har qanday ijtimoiy jarayon o‘zgaruvchan mohiyat kasb etishi bilan tabiatan dinamik ahamiyat kasb etadi. «Yuksak ma’naviyat» yoki «yoshlar ma’naviyati» kabi bir qator tushunchalar esa sitatik, ya’ni voqeylikka nisbatan barqarorlik holatini ko‘proq aks ettiradi. Bu esa davr o‘zgarishlari, talablariga javob bermasdan zamon ruhidan orqa qolishi bilan xatarli hisoblanadi.

Kuchli ma’naviyat tushunchasini ijtimoiy pedagogik tahlil asosida o‘rganadigan bo‘lsak, masalaning murakkabligi ob’ektlarning ko‘p o‘lchamliligi, nochiziqliligi va ko‘pbog‘lamliligi bilan ahamiyatlidir. Bu barqaror, ya’ni statik, o‘zgarmas holatga nisbatan aksincha o‘zgarishlarni o‘ziga qabul qila olishi bilan afzallik kasb etadi. Bunda nafaqat azaliy milliy qadriyat, an’analarga qat’iy rioya qilish, balki davr o‘zgarishlarini o‘zida aks ettira olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Har bir ob’ektning konseptual va matematik modeli ishlab chiqiladi.

Samaradorlikni belgilash uchun har qanday tushuncha yoki an’ana, urf odat, qadriyatning afzalliklarini belgilovchi dastabki barqaror holati va kuchli ma’naviyat tushunchasi asosida o‘zgargan holat o‘zgaruvchilarining o‘zgarish dinamikasini aniqlash mumkin. Har qanday ijtimoiy voqelik, an’ana, urf odat, qadriyatning dinamik xususiyatlari turli jihatlardan o‘zgaruvchanlikning ijobiy yoki salbiy ko‘rinishlari o‘rganiladi. Ijobiy o‘zgarishlar qabul qilinib, salbiy ko‘rinishlar bartaraf etiladi. Bunda jamoatchilik nazorati turli yo‘llar bilan, jumladan, ommaviy axborot vasitalari, aholi bilan uchrashuvlar hamda boshqa ko‘rinishlarda bildiriladi va inobatga olib boriladi. Bunda o‘lchanayotgan va boshqarilayotgan o‘zgaruvchilarining turli ko‘rinishdagi vektorlarni tanlashda ob’ektning umumtizimli hususiyatlari, jumladan statsionar holatda turg‘unlik, kuzatuvchanlik va boshqaruvchanlik o‘rganib boriladi. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruv ob’ekti sifatida ko‘p o‘lchamli va nochiziqli bo‘lganligi uchun, ularning ijtimoiy muhitda ijobiy ishlash rejimini ta’minlaydigan boshqarish tizimlirini sintezlash muammosini sinergetik boshqarish nazariyasidan foydalanib yechiladi.

«Kuchli» so‘zi jismoniy qobiliyatli, kuch-quvvati nisbatan ortiq, baquvvat; sog‘lom va yaxshi rivojlangan; katta quvvatga ega bo‘lgan, quvvatli; baquvvat, imkoniyati zo‘r, qudratli; ta’sir darajasi yuqori, tez ta’sir qiladigan; yuz berish darajasi yuqori, qattiq, shiddatli; o‘z ish-hunarini yaxshi biluvchi, qobiliyati zo‘r, talantli; to‘q, yuqori darajali degan ma’nolarni anglatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan «Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qirayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi», tarzida ifodalangan metodologik prinsip ma’naviyat, milliy g‘oyaning yangi davrdagi vazifalarini, rolini, o‘rnini, ahamiyatini asoslab berdi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat avvalambor xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy merosiga tayanadi. Zero bu meros milliy mafkura, ma’naviyatimizning mustahkam manbaidir. Davr sinovlariga bardosh bera olmagan, o‘tkinchi hodisalar hech qachon merosga aylana olmay, vaqt o‘tishi bilan izsiz yo‘qolib ketadi. Milliy qadriyatlar esa muayyan xalqning asl belgilarini o‘zida aks ettiradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ish ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy psixologik mexanizm bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tarkibiy qismi – g‘oyaviy tarbiyaga tayanadi va muayyan g‘oyaga ishontirish; uyushtirish; safarbar etish; ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish; g‘oyaviy tarbiyalash; g‘oyaviy immunitetni shakllantirish; harakat dasturi bo‘lish kabi asosiy maqsadlarni ko‘zda tutadi.

Nemis mutafakkiri Ye.Mollenxauerning ta’rifiga ko‘ra ijtimoiy pedagogika bu – yoshlarga ijtimoiy tizimga tez moslashishga, xulq-atvor normalaridan og‘ishga qarshi turishlarini ilmiy ta’minlashga yordam beruvchi fandir. Yuqoridagilardan ijtimoiy pedagog faoliyatining mazmuni, ya’ni ijtimoiy pedagog bu – bolalar, ota-onalar, o‘smirlar, yoshlar, yoshi kattalar bilan ta’lim, muassasalar, turar joylarda ijtimoiy-tarbiyaviy ish olib boruvchi mutaxassisdir. Mazkur ta’riflar mamlakatimizda keng joriy qilingan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va shu soha xodimlarining kompetensiyalariga uyg‘unligini sezish qiyin emas.

Bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy ishlar vazifalarining ko‘lami kengayib, boyib bormoqda. Joylarda ma’naviyat va ma’rifat bo‘lim va bo‘linmalari oldida turgan tarbiyaviy vazifalar turkumiga aholi orasida kitobxonlik, ma’naviy o‘lkashunoslik ma’rifatini amalga oshirish, mustaqil fikrlash, milliy san’atimiz, osori atiqalarimizga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish; «ommaviy madaniyat»ning asl mohiyati, shakl va ko‘rinishlarini tushuntirish; yoshlar ongi va qalbi uchun kurash; ularni yot, buzg‘unchi g‘oyalaridan himoya qilish; milliy g‘oyamiz talablari asosida yashash va ishlashga o‘rgatish; O‘zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini uqtirish; milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma’naviyat va ma’rifatga doir ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish; keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahallalarda jamoatchilik nazorati madaniyatini targ‘ib qilish shular jumlasidandir.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda umumiylik bilan birgalikda faqat o‘sha hududga xos bo‘lgan xususiylik ham mavjud bo‘ladi. Bu har bir hududning viloyat, tuman, shahar Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ish rejalari mazmuni, maqsadi, shakllari, vositalari, yo‘nalishlarida aks etadi.

Fuqaro ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning nafaqat ob’ekti, balki sub’ekti hamdir. Buning uchun har bir mahallada aholining oilaviy muhiti, o‘qishi, xulqi, munosabatlari, ta’lim muassasalarida aholining yetakchi qadriyatlari tizimini o‘rganish, ijtimoiy faol, notiqlik qobiliyatiga ega fuqaro, yoshlarni saralab olib, maqsadga yo‘naltiriib, ularni ma’naviy-ma’rifiy ishlarning faol sub’ektlariga aylantirish zarur.

Bunda jamoatchilik fikrini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi, chunki u ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi va unga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mahallalarda tegishli komissiyalar ko‘magida hayotning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan davra suhbatlarining mundarijasiga ma’naviy ehtiyojlar, axloqiy me’yorlarning shakllanishi, kiyinish madaniyati, vaqtdan foydalanish madaniyati, to‘y-marosimlarni tejamkor o‘tkazish, ma’naviy begonalashuvning oldini olish kabi masalalar bo‘lishi mumkin. Bunday turdagi masalalarni muhokama qilish odatda yoshlarni yot ta’sirni jamoaviy tahlil qilish va baholash jarayoniga qiziqtiradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi bir qator ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Zero, birinchidan, olib borilayotgan turli tarbiyaviy ishlar o‘zining qat’iy, ilmiy asoslangan ijtimoiy pedagogik texnologik tizimiga ega emas.

Ikkinchidan, yoshlar bilan ma’rifiy ishlarni olib borishda oila bilan mahalla, ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyoti o‘rtasida metodik nomutanosibliklar bor. Bu esa ma’naviy tarbiya uchun zarur bo‘lgan izchillik, tizimlilikni hamda targ‘ibot ta’sirchanligini susaytiradi.

Buning ustiga zumer yoshlarda «ommaviy madaniyat» ta’siri sezilmoqda. Bunga ularning mashaqqatli, qattiq iroda, tirishqoqlik talab qilinadigan ishlarga qo‘l urishdan cho‘chishlarida, o‘z bilimi va mehnati bilan emas, balki ota-onalari sotib olib bergan qimmatbaho buyumlar bilan o‘zlarini ko‘rsatishni istashlarida namoyon bo‘lmoqda.

Uchinchidan, tuman-shaharlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchan ijtimoiy pedagogik tizim bilan ta’minlangan holda olib borilishi kerak. Yoshlar didiga, ruhiga, tuyg‘ulariga samarali ta’sir ko‘rsatish uchun ularning kundalik hayotini yaxshi bilish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini o‘rganib, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otish juda muhimdir. Bundan tashqari talaba-yoshlarimiz uyda ham, uydan tashqarida ham, o‘quv yurtlarida ham, yotoqxonada ham, hamma joyda bir xil, sog‘lom ma’naviy muhit ta’siri ostida bo‘lishi kerak. Bu esa ma’naviy-ma’rifiy faoliyat sub’ektlari faoliyatini ijtimoiy-pedagogik asosda muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

To‘rtinchidan, mahalla aholisi, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tashab-buslarini qo‘llab-quvvatlash g‘oyat muhimdir. Bu omilga e’tiborsizlik bir tomondan, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishini cheklab qo‘ysa, ikkinchi tomondan, ularning muttasil nazorat ostida bo‘lishi ularda boqimandalikni va undan kelib chiquvchi mas’uliyatsizlikni avj oldiradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishda har bir korxona, tashkilot va mahallaning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullarining faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur lavozim o‘zining qator shaxsiy va kasbiy talablariga ega. U o‘zida tashkilotchilik, yuksak milliy mafkuraviy onglilik, tarbiya nazariyasi, uslubiyati, psixologiyasi bilimdoni va amaliyotchi, milliy va mahalliy madaniyat, tarixni yaxshi biluvchi, ijtimoiy faol ustoz va notiq bo‘lishi lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga milliy mafkuraviy yunaltirilganlik, ta’lim va tarbiya birligi, hayotiylik, yaxlitlik, ong va xulq-atvor birligi; amaliylik, ommaviylik, talabalar tashabbusini rag‘batlantirish, ijodiy hamkorlik, o‘zaro hurmat, bir-birini rag‘batlantirish, «Ommaviy madaniyat» ta’siriga qarshi ma’rifiy kurash, uzviylik, g‘oyaviy va badiiy tarbiya omillari ta’sirining muvofiqlashganligi kiradi.

G‘arb pedagogik falsafasida Gegel birinchi bo‘lib axloq va ma’naviyat tushunchalari o‘rtasidagi farqni nazariy asoslashni taklif qildi. O‘zining «Huquq falsafasi» asarida u ma’naviyat va axloqning har biriga alohida bo‘lim ajratadi. Ma’naviyat bilan u shaxs va shaxsiy munosabatlar sohasini, sub’ektiv ravishda vujudga keladigan majburiyatni, ideal va tanqidiy munosabatlarni qamrab olgan sub’ektiv-individual anglanuvchi, axloqiy sohaning «ichi»ni, substansiyasini tushungan. Shu ma’noda kasbiy axloq shaxsning jamoa, davlat, ko‘chmas mulk, korporatsiyalar, hamkasblar, iste’molchilar oldidagi o‘ziga xos majburiyatlari majmuidir.

Professor B.T.Lixachev «Axloq – bu jamiyatdagi odamlarning munosabatlarini jamoatchilik fikri asosida boshqaradigan, ularning xulq-atvori va faoliyatini rag‘batlantiruvchi yoki taqiqlovchi normalar va qoidalar to‘plamidir», - deb hisoblagan.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda innovatsion g‘oyalarga tayanib ish tutish bugun dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Samarasiz, eskicha an’anaviy usullardan voz kechib, tizimda shakllangan, har tomonlama o‘zini oqlagan yangicha usullarga yondashuvlardir. Bu esa o‘rganishlar, izlanishlar, tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, soha mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2021 yil 19 yanvar.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madaliev va boshqalar tahriri ostida. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. Elektron shakli, 441 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 29 dekabr kuni milliy kino san’ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017.

4. http://elibrary.bsu.az/books_163/N_66.pdf

5. Мустаева Ф.А. Основы социалной педагогики: Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Академический проект, 2001 – 416 с.

6. Qosimova Z.X. Talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllanti-rishning pedagogik asoslari. (Oliy o‘quv yurtlari ma’naviy-ma’rifiy ishlari misolida). Pedagogika Fan. nomz. ilmiy dar. olish uchun tayyorlangan diss-ya. -T. 2004. 117-b.

7. Лихачев Б.Т. Педагогика: курс лекций // Б. Т. Лихачев. - М.: Юрает, 2001. - С. 667.